



O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi



Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n. S.U.Tadjiyeva

« _____ » _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "Aholi turmush darajasi ko`rsatkichlari va shu
masalani o`qitish uslubiyoti"

Bajardi: 5140900 – "Kasbiy ta`lim" (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`lanishi kunduzgi bo`lim 4 kurs "D" guruhi
talabasi Abdullaev Abduxamid

Ilmiy rahbar, i.f.n.

S.U.Tadjiyeva

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

« _____ » _____ 2012 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi**

Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası

**Mutaxassialik: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`lanishi**

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri _____

«_____» _____ 2011 й.

Abdullaev Abduxamidning bitiruv malakaviy ishi

T O P S H I R I Q

**bitiruv malakaviy ishi mavzusu: “Aholi turmush darajasi ko`rsatkichlari va shu
masalani o`qitish uslubiyoti”**

1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan _____

2.Tugatilgan ishning talaba tomonidan topshirish muddati _____

3.Tushuntirish xatinig tarkibi _____

bitiruv malakaviy ishiga tegishli savollar ro`yxati:

4.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)

5.Ilmiy maslahatchilar: Z.Juraeva

6.Ilmiy rahbar: S.U.Tadjiyeva

7.Vazifani topshirish sanasi _____

8. Vazifa ijroga qabul qilindi _____

Talaba imzosi _____

Kafedra mudiri imzosi _____

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishgilova

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI KO`RSATKICHLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Aholi turmush darajasining iqtisodiy mohiyati	6
1.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash	10
1.3. Turmush sifatini oshirish yo`llari	14
2-BOB. O`ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YUKSALTIRISH YULLARI	
2.1. Aholining moddiy farovonligi o`shishi tendentsiyalari	20
2.2. Aholining ijtimoiy farovonligi va uning o`shishi	35
2.3. Qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan chora- tadbirlar	44
III-BOB. "AHOLI TURMUSH DARAJASI KO`RSATKICHLARI" MAVZUSINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O`QITISH USLUBIYOTI	50
XULOSA	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	64
ILOVALAR	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Inson rivojlanishining asosiy maqsadi odamlarning farovonligini ta`minlash, sog'lom va bunyodkorlik hayotidan etarlicha bahra olish imkoniyatini beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni yaratishdan iborat.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko`tarish, unga ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta`lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. "Ta`lim to`hrisida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi uzluksiz ta`lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Respublikamiz aholisining turmush tarzi, uning o`ziga xos sharoitlari, urf-odatlarini, boy tarixiy va ma`naviy merosi, jahon xalqlarining ijobiy tajribalarini hisobga olgan holda boyib borib dunyodagi yirik mamlakatlar qatoridan joy olmoqda. Bu xayrli ishlarda respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning sa`y-harakatlari nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Buning tasdiqini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan etakchi davlatlar ko`magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jig`ozlash bo`yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O`zbekiston xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o`sb borishida va boshqa misollarda yaqqol ko`rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur`atlarda barqaror o`sb borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam

qayta ko`rib chiqilishi, ta`lim, sog`liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag`batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta`minladi. "2011yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o`sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi"¹

Bitiruv-malaka ishining asosiy maqsadi: "Axoli turmush darajasi ko`rsatkichlari" mavzusini o`qitish uslubiyotini ilmiy jihatdan asoslash bo`yicha takliflar tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** hal etish ko`zda tutilgan:

- Aholi turmush darajasi va uning ko`rsatkichlarini ilmiy jihatdan asoslash.
- Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.
- O`zbekistonda aholi daromadlarini yanada oshirish yullarini tahlil qilish;
- Iqtisodiy ta`lim jarayonida zamonaviy o`qitish uslublaridan foydalanish xususiyatlarini aniqlash;
- "Axoli turmush darajasi kursatkichlari" mavzusini o`qitish uslubiyotini ishlab chiqish.

Bitiruv-malaka ishining ob`ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti etib "Axoli turmush darajasi kursatkichlari" mavzusi va uni o`qitish uslubiyoti tanlab olindi.

¹ Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`tariladigan yil bo`ldi O`zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma`ruzasi// Xalq so`zi, 2012 yil 20 yanvar', № 14

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo`lib axoli daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati amalga oshirish jaraenida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari; O`zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, I.A.Karimov asarlari, vatanimiz va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va maqolalari.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar ushbu muammolar bo`yicha davlat Statistika Qo`mitasining statistika ma`lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydanilgan adabiyotlar ro`yxatidan va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy Ish ilovalar bilan birgalikda 75 sahifada bayon qilingan bo`lib 10 ta jadval, 4 ta chizma xamda 2 ta rasmni o`z ichiga oladi.

1-BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASI KO`RSATKICHLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholi turmush darajasining iqtisodiy mohiyati.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy ne`matlar bilan ta`minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne`matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Aholiturmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko`rsatkichlari tizimi o`z ichiga quyidagi guruhlarini oladi:

1. Tuq`ilish va o`lish darajasi hamda boshqa demografik ko`rsatkichlar.
2. hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari.
3. Oziq-ovqat tovarlarini iste`mol qilish.
4. Turar joy sharoitlari.
5. Ma`lumot va madaniyat.
6. Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. hayot kechirish qiymati va iste`mol narxlari.
9. Transport vositalari.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta`minot.
12. Inson erkinligi.

Bu asosiy ko`rsatkichlardan tashqari yana ba`zi bir axborotga oid ko`rsatkichlar ham ajratib ko`rsatiladi: Aholijon boshiga to`g`ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to`g`ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to`g`ri keluvchi iste`mol hajmi va boshqalar.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne`matlar to`plami mehnat sharoiti, ta`lim, sog`liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o`z

ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a`zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog`liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun Aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin. Birinchi yondoshuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to`g`ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko`rsatkichi bo`yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo`yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste`molchi byudjeti asosida amalga oshiriladi. Iste`molchi byudjetlarining bir qator turlari mavjud bo`ladi: o`rtacha oila byudjeti, yuqori darajada ta`minlangan byudjet, minimal darajada moddiy ta`minlanganlar byudjeti, nafaqaxo`rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari byudjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta`minlab bo`lmaydi. Bu daraja moddiy ta`minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o`rtacha daromad "o`rtacha sinf" deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo`yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste`mol savati to`plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o`qitish imkoniyati, qimmatli qog`ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta`minlangan yoki "boy" qatlamining mavjud bo`lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo`lgan juda oz miqdori kiradi. AqSHda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8-10 mln. dollar baholanadi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog`liq. **Turmush tarzi - bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-**

iqtisodiy kategoriya. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya`ni:

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo`sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma`naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me`yorlari va qoidalari.

Inson salohiyatini rivojlantirish indeksi. Amalga oshirilayotgan boshqa ijtimoiy tadbirlarni o`z ichiga olgan izchil siyosat natijasida O`zbekistonda inson salohiyatini rivojlantirish indeksining (ISRI) deyarli barcha ko`rsatkichlari barqaror o`shish yo`nalishiga ega. O`zbekistonga doir hisob-kitoblar shundan dalolat beradiki, inson salohiyati indeksi miqdoriga ta`lim ko`rsatkichi (40,45 foiz) va umrning kutilayotgan davomiyligining (34,92foiz) ta`siri nisbatan ko`proq. BMTning 2011 yilga doir ma`lumotlariga ko`ra, respublikada ta`lim tizimi dunyo miqyosidagi o`rtacha ko`rsatkichdan yuqori bo`lib, 177 mamlakat orasida 80-o`rinni, umrning kutilayotgan davomiyligi bo`yicha esa 112-o`rinda turadi. Biroq O`zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko`rsatkichi unchalik yuqori emas (177 mamlakat orasida 130-o`rin) (1-ilova).

Kelajakda aynan ushbu ko`rsatkichning o`shishi O`zbekistonda inson rivojlanishi darajasini oshirishda muhim imkoniyat sifatida xizmat qiladi.

Barchaning munosib turmush darajasiga erishishi uchun aholiga zarur resurslardan foydalanish imkoniyatini berish maqsadida yuqori iqtisodiy o`shish sur`atlarini ta`minlash, shuningdek, aholining turli qatlamlarining ish bilan ta`minlanish, er, kreditlar va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish orqali qayd etilgan o`shish sur`ati imkoniyatlaridan foydalanishini kafolatlash zarur. Oxirgi iqtisodiy va ijtimoiy ma`lumotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, aholi jon boshiga YaIM ko`rsatkichining oshishiga qaramay mamlakatda 2003 yildan buyon

kuzatilayotgan muayyan darajadagi iqtisodiy o`shish sur`atlari kam ta`minlanish darajasini joylarda, ayniqsa, qishloqlarda bir tekis kamaytirishga qaratilgan. SHu bois, aholining muayyan qismi shu davrda mazkur o`shish sur`atlari imkoniyatlaridan etarlicha foydalanmadi. Bundan tashqari, mehnat bozorida kichik biznesni jadal rivojlantirish, servis va xizmat ko`rsatish sohalarida hamda kasanachilikni rag`batlantirish chora-tadbirlari natijasida yangi ish o`rinlarini yaratish bilan bog`liq tub o`zgarishlar ro`y berdi.


Yangi ish o`rinlarini yaratish aholi farovonligini yuksaltirish strategiyasini amalga oshirishda muhim hayotiy ahamiyatga egadir. Ushbu keng qamrovli strategiya iqtisodiy o`shish xususiyatlarini o`zgartirish, Aholi bandligini, jumladan oziq-ovqat, mahsulotlarni qayta ishlash sanoati, engil sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, kichik korxonalarda mashinasozlik sanoati uchun ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko`rsatish va kasanachilik sohasini rivojlantirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, ayni paytda ijtimoiy hamda iqtisodiy infratuzilmaga, jumladan, qishloq joylarga davlat investitsiyalarini yo`naltirishni ko`paytirish hisobidan qayta taqsimlash siyosatini mustahkamlash (faqat maqsadli ijtimoiy transferlar shaklidagina emas) imkonini beradigan qator strategik choralarni nazarda tutadi.

1.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. SHu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhleri o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf qilmaydi.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida **Lorents egri chizig'idan** foydalaniladi (1-chizma). CHizmaning yotiq chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutloq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) OE chizig'da ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20% barcha daromadlarning 20%ni, aholining 40% daromadlarning 40%ni, aholining 60% daromadlarning 60%ni olishini bildiradi va h.k. Demak, OE chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutloq tenglikni ifodalaydi.

SHuningdek, nazariy jihatdan mutloq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhleri (20%, 40 yoki 60% va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100% daromadga ega bo'ladi. CHizmadagi OFE siniq chiziqi mutloq tengsizlikni ifodalaydi.



1-chizma. Lorens egri chizig'i.


Yalpi daromadning aholi guruhlari o`rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun **aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffitsienti)** ko`rsatkichi qo`llaniladi. Djini koeffitsienti chizmadagi Lorents egri chizih bilan mutloq tenglik chizig`i o`rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko`rsatkich qanchalik katta bo`lsa, (ya`ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo`ladi. Jamiyat a`zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko`rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,33 ga qadar, AqSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan (1-rasm).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo`ladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

- kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;
- ta`lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o`rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a`zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta`minlashga qaratiladi.

Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to`lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to`lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va qashshoqlikni yumshatishning eng muhim vositasi hisoblanadi.



1-rasm. Dunyoning barcha mamlakatlarida Gini koeffisienti

1.3. Turmush sifatini oshirish yo'llari

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi qisoblanadi.

Aholi daromadlari - bu alohida shaxs yoki oila (uy xo'jaligi) tomonidan turli manbalardan ma'lum davr mobaynida olinadigan va iste'mol, jamg'arma, turli yig'im va soliqlarga sarflanadigan pul va natural tushumlar majmuidir.


Aholi daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmoqi sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy tuzilishi ham takomillashib boradi (2-chizma).

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Aholi pul daromadlari - ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

Natural daromad - mehnat haqi qisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

Nominal daromad - aholi tomonidan ma'lum vaqt oralihida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.



2- chizma.

Real daromad - narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o'sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog'liq. Aholining real daromadlari 2010 yil davomida 26,5 foizga ko'paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'sishi 2010 yilda o'rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdiqidir.

So'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2010 yilda 2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

2010 yilda ham ish haqini kamida 30 foizga, real daromadlarni esa 23 foizga oshirish mo'ljallanmoqda. Aholining uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan sanoat tovarlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlari sezilarli darajada o'sdi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar


yaratish, dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo`ladi.

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg`armalari tarkibi hamda ular o`rtasidagi nisbat ham sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg`armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to`lovlar, majburiy to`lov va badallar, omonatlar, qimmatli qog`ozlar, qat`iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo`ladi (3-chizma).


Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar "turmush sifati" tushunchasi bilan tavsiflanadi.

Turmush sifati - jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko`ra uning o`lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

Turmush sifati ko`plab omillar ta`sirida shakllanadi (4-chizma).



3-chizma.



4-chizma

2-BOB. O`ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YUKSALTIRISH YULLARI

2.1. Aholining moddiy farovonligi o`shishi tendentsiyalari

Aholining turmush darajasi ko`p jihatdan uy xo`jaliklarining jamharilgan aktivlari va oilalarning joriy daromadlariga bohliq bo`ladi. O`zbekiston uchun oilalarning 98 foizi joriy moddiy holatidan qat`iy nazar, o`zlarning xususiy mulki bo`lgan shaxsiy turar joylariga ega.

2003 yilning noyabrida iqtisodiy tadqiqotlar Markazi tomonidan o`tkazilgan uy xo`jaliklari aktivlaridan foydalanish samaradorligini tadqiqi etish jarayonida, uy xo`jaliklari tomonidan to`plangan aktivlarning o`rtacha qiymati bitta oilaga 6,4 ming Aqsh dollarini yoki mamlakat miqyosida 35 mlrd. AqSH dollarini tashkil etishi aniqlandi.

Uy xo`jaliklari aktivlari tarkibining 80%ini asosan, xususiy mulk hisoblanuvchi shaxsiy turar-joylar tashkil qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko`ra keyingi 2,5 yilda turar-joylarning bozor qiymati respublika bo`yicha shaxarlarda 3 barobardan ortiq, qishloq joylarida esa o`rtacha 2,5 barobarga o`sgan. SHunday qilib, 2007 yilning boshida uy xo`jaliklari aktivlarning umumiy qiymatini 80 mlrd. AqSH dollariga yoki o`rtacha har bitta oilaga 14,5 ming AqSH dollariga teng deb baholash mumkin.

SHu bilan birga, ko`rsatilgan aktivlardan tadbirkorlik orqali daromadlar olishda faqat 4,1 foizga foydalaniladi, bu esa oilalarning tadbirkorlikdan oladigan daromadlari o`shishi uchun katta va hali foydalanilmayotgan salohiyati mavjudligidan dalolat beradi.

Tadqiq etilgan oilalar o`rtasida uy xo`jaliklari resurslari asosida oilaviy biznesni tashkil qilish istagida bo`lganlar bu ishni amalga oshirib bo`lganlar sonidan kamida 2 marta ko`p bo`lgan.

Uy xo`jaliklariga o`z aktivlarini to`liq ishga tushirishga imkon bermayotgan bir nechta sabablarni ko`rsatish mumkin, ulardan eng muhimi iqtisodiy sabablardir. Xususiy tadbirkorlik bilan oilalarning faqat 25 foizi shug`ullanishini e`tiborga oladigan bo`lsak ham shundan 20 foizi buning uchun kerakli moliyaviy resurslarga ega emas, ma`lumotlarga ko`ra boshlang`ich zayom kapitaliga bo`lgan ehtiyoj 1 mlrd. AqSH dollarini tashkil etadi.

Uy xo`jaliklari resurslarini safarbar etishda, pul qo`yilmalaridan tashqari investitsiyalash uchun qulay sharoit ham talab qilinadi. Uy xo`jaliklari asosida iqtisodiy faoliyatdan voz kechishning sabablari jumlasiga, noiqtisodiy xarakterdagi, birinchi navbatda, qonunchilik, institutsional va ma`muriy omillar ham kiradi. qonunchilik xarakteridagi muammolar shu bilan asoslanadiki, qonunchilikda belgilangan xususiy mulk egalarining xuquqlarining kafolatlari doim ham ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan ta`minlanmagan.

Turmush darajasining muhim xususiyati, aholi uchun munosib turmush sharoitini ta`minlaydigan kommunal xizmatlarning asosiy turlaridan foydalanish imkoniyatlari hisoblanadi.

Kommunal xizmatning asosiy turlari bilan ta`minlanganlik darajasi quyidagi ma`lumotlar bilan tavsiflanadi (1-jadval).

Mamlakatimizda 1990-2010 yillar davomida ikkita maqsadli davlat dasturi-aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta`minlash dasturlari amalga oshirildi. Mazkur dasturlarni amalga oshirish mobaynida, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag`lar, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlarning jalb qilgan kreditlari hisobidan 114,2 ming km masofada suv tarmoqlari va 77,3 ming km. Masofada gaz tarmoqlari kurib bitkazildi. 2011 yilning boshidagi holatiga

1-jadval

Uy xo`jaliklarining kommunal xizmatning asosiy turlari bilan ta`minlanganligi

Kommunal xizmat turlari	Bu xizmatlardan foydalanadigan uy xo`jaliklari salmog'i, %			
	2001 y.	2003 y.	2005 y.	2010 y.
Sovuq suv ta`minoti	81,4	81,8	82,2	82,4
Tabiiy gaz	76,1	79,8	80,6	83,3

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

ko`ra, aholining markazlashgan suv ta`minotidan foydalanish darajasi 82,4 %ni, gaz uchun esa 83,3 %ni tashkil etdi.

SHu bilan birga, suv va gaz ta`minoti infratuzilmasining katta qismini ta`mirlash talab etiladi; ko`plab uy xo`jaliklari kommunal xizmatlarning ushbu turlari bilan ta`minlanmay aziyat chekmoqda. Bunday holat kam ta`minlangan oilalarga ham ta`sir ko`rsatadi. Biroq kam ta`minlangan oillarning kommunal xizmatlardagi etishmovchiliklarni muqobil manbalardan to`ldirish imkoniyatlari qamroq.

SHaxar va qishloq uy xo`jaliklari o`rtasida ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish imkoniyati darajasè bo`yicha tafovut tabiiyga gaz bo`yicha unchalik katta emas, biroq markazlashgan suv ta`minoti bo`yicha sezilari va kanalizatsiya bo`yicha undan ham yuqori (2-jadval).

Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun etkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizga etkazib berilayotgan tabiiy gaz qo`shni davlatlarga nisbatan arzon narxlarda etkazib beriladi. Masalan, aholiga 1 ming m³ hajmdagi tabiiy gazni sotish uchun qirg`izistonda 309 dollar, Tojikistonda 303,5 dollar, qozog`istonda 100-140 dollar, O`zbekistonda esa 30 dollar narx belgilangan.

SHuningdek, mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach aholi uy-joy va xonadonlarini gazlashtirishga katta e`tibor qaratilmoqda (2-rasm). Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarni gaz bilan ta`minlanganlik darajasi o`rtasida tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berilmoqda.

Buning natijasida 2011 yil 1 yanvar' holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta`minlanganlik darajasi shahar joylarida 85 foizni, qishloq joylarida esa 78,7 foizni tashkil etdi. SHu kunga qadar jami gazlashtirilgan

Aholining ichimlik suvi, tabiiy gaz va boshqa kommunal xizmat turlari bilan ta`minlanganligi (% hisobida)

Ko`rsatkichlar	1990	2000	2010	2011
Suv ta`minoti	64	80,4	82,3	82,4
SHu jumladan,				
Qishloq aholisi	55	72,3	75,6	75,8
Tabiiy gaz	44,6	76,1	83,2	83,3
SHu jumladan,				
Qishloq aholisi	19,3	65,9	77,2	77,4
Markazlashgan isitish suv tizimi	29,1	35,4	41	41
Kanalizatsiya	25,5	28,3	37	37,1
1 kishiga to`g`ri keladigan uy-joy maydoni m2	12,1	13,8	14,9	15

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.


Aholining iste'mol buyumlari bilan ta'minlanganlik va real daromadlari hajmining o'sishini ular jamg'armalari, xususan moliyaviy muassasalardagi omonatlari miqdorining oshishi orqali ham kuzatish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholining kredit tashkilotlaridagi omonatlari qoldig'i 2010 yil davomida 1 trln. 190,4 mlrd. so'mga yoki 69,1 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 2 trln. 914,2 mlrd. so'mni, shu jumladan tijorat banklarida - 2 trln. 749,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Demak, 2010 yilning o'zida aholining tijorat banklaridagi omonati 1,7 barobar oshganligi uning real daromadlari o'sib borayotganligidan darak beradi.

Respublikada 1996 yildan boshlab aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri kelgan pul daromadlari o'sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi. Keyingi yillar davomida aholi real daromadlarining o'rtacha o'sishi 16,2 foiz atrofida bo'ldi. 2011 yilda real daromadlar 2000 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi. (3-jadval).

2000-2011 yillar davomida respublikaning barcha joylarida aholi daromadlarning o'sishi kuzatildi. Y'ng yuqori o'sish sur'ati, daromadi yug'ori mintaqalar-Toshkent shahri va Navoiy viloyatida kuzatildi. Mazkur mintaqalar o'rtasida daromadlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mavjud tafovutlarning sezilarli kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi. Aholining daromadlari strukturasi ish haqining ulushi o'smoqda (4-jadval).

Aholining tadbirkorlik faoliyatidan, mulki va mustaqil ravishda bandlikdan olinadigan daromadlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Tahlil davrida dehqon xo'jaliklari va tadbirkorlik faoliyatidan olingan umumiy daromadlari salmog'i 26,9 foizdan 36,4 foizgacha o'sdi. SHaxsiy yordamchi va dexqon xo'jaliklari mahsulotlari tobora ko'proq tovar xarakteriga ega bo'lmoqda. U natural iste'mol manbasidan ko'ra ko'proq aholining pul daromadlari o'sishi omiliga aylanmoqda.

Uy joy (xonadonlarni) tabiiy gaz bilan gazlashtirilganlik darajasi



2-rasm.

Mavjud real pul daromadlari, (% da)

	O`tgan yilga nisbatan	2000 yilga nisbatan
2000 y.	124,7	100,0
2001 y.	116,8	116,8
2002 y.	112,6	131,5
2003 y.	111,8	147,0
2004 y.	114,4	168,3
2005 y.	120,2	202,3
2009 y.	123,0	246,8
2011 y.	130,0	251,2

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

Aholining umumiy daromadi tarkibi (% da)

Ko`rsatkichlar	2001	2002	2003	2005	2010	2011
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Oylik pul	79,3	82,4	83,8	84,5	89,3	89,3
Ish haki	29,9	28,2	29,5	29,5	32,0	32,1
Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad	10,0	12,9	15,1	15,4	22,4	23,2
SHaxsiy yordamchi xo`jaliklardan olingan daromad	16,2	17,8	17,5	17,0	9,4	9,3
Ijtimoiy transfertlar	15,3	15,5	15,8	17,3	17,9	18
Qarindoshlardan olingan moddiy yordam	4,4	5,2	4,2	4,1	-	-
Mulkdan olingan daromad	0,7	1,3	1,2	1,1	0,5	0,5
Kreditlar, ssudalar	2,6	1,4	0,5	0,6	-	-
Boshqa pul daromadlari	0,2	0,1	0,0	0,0	7,1	6,2
Natural shakldagi daromadlar (so`mga aylantirganda)	20,7	17,6	16,1	14,9	10,7	10,7
SHaxsiy yordamchi xo`jaliklardan natural iste`mol	15,0	12,7	12,8	11,8	-	-
Imtiyozlar	0,4	0,1	0,2	0,1	-	-
Natura shaklidagi boshqa daromadlar	5,3	4,7	3,2	3,0	-	-

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

Bu esa dehqon xo`jaliklariga ajratilgan er maydonlaridan foydalanishning iqtisodiy samarodligi o`sganligidan dalolat beradi. Ulardan tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va pul daromadlarini shakllantirishda keng miqyosida va samarali foydalanilmoqda.

Aholi daromadlarning o`shishi xarajatlar tarkibining yanada mukammal bo`lishiga olib keldi. Aholining xarajatlar strukturasi tovarlar xaridi uchun xarajatlar salmog`i kamaydi va xizmatlar uchun haq to`lashning salmog`i o`sdi. SHu bilan bir paytda yordamchi xo`jalik va biznes yuritish, ko`chmas mulklarni xarid qilish va jamg`arma xarajatlari o`smoqda. Xarajatlarning tovar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish xarajatlari salmog`ining kamayishi bilan bir vaqtda, nooziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, o`c`iq muddatlarda foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishga sarflanadigan xarajatlar ulushi o`sdi (5-jadval).

Tahlililar shuni ko`rsatmoqdaki, aholi jon boshiga bir yilda non va non mahsulotlari iste`moli 1990 yildagi 170 kilogrammdan 2010 yilda 161 kg, 2011 yilda 160 kilogrammga kamaygan. Go`sht va go`sht mahsulotlari aholi jon boshiga iste`mol qilish yiliga 1990 yilda 32 kg, 2000 yilda 34 kg, 2010 yilda esa 36 kilogrammni tashkil etdi (6-jadval).

2010 yilda 1990 yilga nisbatan bir yilda aholi jon boshiga sut mahsulotlari iste`moli 4,1 %ga, tuxum 11,7 % , sabzavot, poliz mahsuloti iste`moli 2,2 barobarga, kartoshka iste`moli 1,5 barobarga, meva, uzum iste`moli 3,6 barobarga o`sgan. Aholi turmush darajasining o`shishini aholining uzoq muddat ishlatiladigan tovarlar bilan ta`minlanganlik darajasi ham ifodalaydi. 1990-2011 yillarda har 100 uy xo`jaligiga to`g`ri keladigan televizorlar soni 90 tadan 132 taga, xolodil'nik va sovutkichlar 80 tadan 95 taga, konditsionerlar 9 tadan 18,5 taga o`sdi (7-jadval)

Tahlil natijalari 2001-2011 yillarda kam ta`minlanganlik darajasining pasayish tendentsiyasè kuzatilganligini ko`rsatadi.

har 100 uy xo`jaligiga to`g`ri keladigan konditsionerlar soni 9 tadan 18,5 taga, elektrochangyutgichlar 29 tadan 37 taga o`sdi. SHaxsiy komp'yuterlar 2011 yilda 12 taga DVD proigr'vatellar soni 2000 yildagi 23 tadan 55 taga o`sdi. Mobil'

O`zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibi, foizda

Ko`rsatkichlar	1991 й	2001 й	2010 й	2011 й
1. Jami xarajatlar tarkibi	100,0	100,0	100,0	100,0
ulardan:				
iste`mol xarajatlari	81,1	84,3	78,4	78,1
Iste`moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, a`zolik badallari va boshqa majburiy to`lovlar)	7,1	6,9	6,2	6,0
pul omonatlari va jamg`armalar	11,8	8,8	15,4	15,9
2. Jami iste`mol xarajatlari	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	59,8	49,8	49,5
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	26,8	33,7	33,8
xizmatlar uchun to`lovlar	10,2	13,4	16,5	16,7

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

O`zbekistonda aholi jon boshiga asosiy mahsulotlar iste`moli
(bir yilda kg)

Ko`rsatkichlar	1990	2000	2009	2011	2011 йилда 1990 йилга нисбатан %
Non va non mahsulotlari	170	167	161	160	94,1
Go`sht va go`sht mahsulotlari	32	34	35	36	112,5
Sut mahsulolari	210	162	218,1	218,5	104,1
Tuxum (dona)	120	47	92	134	111,7
Sabzavot-poliz mahsulotlari	107	128	236,8	237,6	222,1
Kartoshka	29	36	41	45	155,2
O`simlik yog`i va boshqa yog`lar	12,6	11	13	13	103,2
SHakar	11	16	16	16,5	150
Meva uzum	23	42	74	82,8	360

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

7- jadval

Aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlangaligi (har 100 uy xo'jaligiga)

Ko`rsatkichlar	2001 й	2010 й	2011 й
Televizorlar	88	132	133
Muzlatgich va muzxonalar	86	99	101
Konditsionerlar	11	18,5	19,1
Y`lektro changyutgichlar	30	37	38
SHaxsiy komp'yuterlar	0,2	12	14
Fotoapparat va videokameralar	21	24	25
Videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar	31	64	66
Kir yuvish mashinalari	69	75	76
Mobil' aloqa vositalari	18	145	149
O`rtacha har 1000 nafar aholiga to`g`ri keladigan avtomobillar soni, birlikda	38,9	51,5	51,7
har 100 ta xonadonga to`gri keladigan avtomobillar soni, birlikda	20,1	27,1	27,2

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

telefonlar ilgari yo`q edi. Endilikda 145 taga etdi. har 1000 kishiga 1990 yilda 37,9 ta, 2011 yilda 51,5 ta avtomobil' to`g`ri keldi. har 100 uy xo`jaligiga esa 1990 yilda 19,2 ta avtomobil' to`g`ri kelgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2011 yilda 27,1 taga etdi.

Bu ko`rsatkichning pasayishi, asosan, shaharlarda kuzatib, kam ta`minlanganlik darajasi 22,5 foizdan 16,2 foizga pasaygan. SHu bilan birga, agar 2004 yilda shahar va qishloq joylarida kam ta`minlanganlik darajasi o`rtasidagi tafovut 8 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2010 yilga kelib bu ko`rsatkich 12 foizga teng bo`ldi. Qishloq aholisi mamlakat aholisi umumiy sonining 64,4 foizini tashkil qiladi, biroq qishloq joylarida istiqomat qilayotgan kam ta`minlangan aholi ushbu toifadagi aholining 74,7 foizini tashkil etadi.

Mintaqalar o`rtasida kambag'al aholining geografik taqsimotida, shuningdek, Toshkent shahri va mamlakatning boshqa mintaqalari o`rtasida kam ta`minlanganlik xavfining tafovuti yuqoriligi kuzatildi. Kam ta`minlanganlikning keskin yuqori xavfi qoraqalpog'iston Respublikasida (44 foiz), eng kichik xavfi esa Toshkent shahrida (6,7 foiz) kuzatildi. Farg'ona kam ta`minlanganlik xavfi eng past viloyat hisoblanadi - 15,8 foiz (Toshkent shahrini istisno qilganda).

Tahlilning ko`rsatishicha, kambag'allikning tarqalishi quyidagi asosiy omillar bilan bog'liq:

1. Oila tarkibi va undagi boqimandalar, avvalo, bolalar soni.

2000-2010 yillardagi tahlil natijalariga ko`ra, 2-3 ta boqimandali va bolali oilalar kam ta`minlanganlik xavfiga ko`proq duchor bo`lgan. qishloq joylaridagi uy xo`jaliklarida o`rtacha oilada 4-5 va undan ko`p bola bo`lishi sababli, kam ta`minlanganlikka moyillik ehtimoli yuqori bo`lgan.

2008 yilda kam ta`minlangan oilalarning o`rtacha hajmi 6,5 kishini, ta`minlangan oilalar esa 4,76 kishini tashqil etgan. Kam ta`minlangan uy xo`jaliklarida o`rtacha boqimandalik darajasi 0,81 ni, ta`minlangan oilalarda esa 0,73 ni tashqil etgan. Kam ta`minlangan oilalarda (3,6) mehnatga

layoqatli yoshdagi oila aʼzolari soni taʼminlangan oilalarga nisbatan koʻproq; (2,7) boʻlgan.

SHu bilan birga, keyingi yillarda kuzatilayotgan tugʻilish darajasining pasayishi tendentsiyasi, jumladan, qishloq joylarida taʼkidlangan muammolar rejalashtirayotgan 2-3 bolali oilalarda maʼlum maʼnoda hal etilmoqaa.

Ayni vaqtda, davlat bolalarga taʼlim va sogʻliqni saqlash boʻyicha bepul xizmatlar koʻrsatish bilan birga, koʻp bolali kam taʼminlangan oilalarga toʻgʻridan-toʻgʻri moddiy yordam koʻrsatishni davom ettirmoqda, bu esa ularning mulkiy imkoniyatlarini yanada mustahkamlaydi.

2. Oila boshligʻining maʼlumot darajasi.

Uy xoʻjaliklarida oila boshligʻining maʼlumot darajasi oʻrta-maxsus kasb maʼlumotidan past boʻlganda kam taʼminlanganlik xavfi yuqoriligi kuzatilgan.

Kam taʼminlangan oilalar oʻrtasida faqat 8,8 foiz oila boshligʻlari oliy maʼlumotga, 25,2 foizi oʻrta- maxsus kasb maʼlumotiga ega boʻlgan holda, kambagʻal oilalar oila boshligʻining maʼlumoti 66 foizida kasb maʼlumotidan, jumladan, 17,3 foizida toʻliq oʻrta maʼlumotdan ham past boʻlgan.

hukumat taʼkidlangan muammoni, 2009 yildan boshlab majburiy umumiy va bepul oʻrta-maxsus kasb taʼlimini joriy qilish, shuningdek, oliy oʻquv yurtlariga oʻqishga kiruvchilar sonini oshirish hisobiga hal qiladi.

Taʼlim jarayonida oila boshliqining kasb-hunar koʻnikmalarini olishi, balandroq maʼlumotga ega boʻlishi, yoshlarning mehnat bozoriga, jumladan, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga kirish vositasini engillashtiradi.

3.Oila boshligʻi va oilaning mehnatga layokatli aʼzolariniig bandlik darajasi.

Taʼminlangan oilalarda oila boshligʻining bandlik darajasi oilaning boshqa mexnatga layokatli aʼzolaridan sezilarli darajada yuqori boʻladi. Ayrim tumanlarning qishloq joylarida turar joyga nisbatan kam taʼminlanganlik koʻproq uchraydi, biroq kichik shaharlar yoki shahar turidagi koʻrhonlarda kam

ta'minlanganlik muammosining dolzarbligi va darajasi kengroq ishlab chiqarish ob'ektlari yopilgan yoki ish haqini to'lash kechiktirilayotgan kichik shaharlar aholisi, shuningdek, shaxsiy iste'mol va muqobil daromad manbasi sifatida er maydonlariga ega bo'lmagan aholi juda zaif sanaladi. Bunday aholi punktlarida yashovchi aholining o'rtacha daromadi va mos ravishda iste'mol talabi pastligi xizmatlar sohasining rivojlanishiga xizmat qilmaydi.

4. Kam haq to'lanadigan bandlikning mavjudligi.

Ish bilan ta'minlanmagan uy xo'jaliklarining oila boshlig'i kam ta'minlanganlik xavfiga ko'proq moyil ekanligiga qaramay, 60% dan ortiq kam ta'minlanganlar oila boshlig'i ish bilan ta'minlangan uy xo'jaliklarida yashagan. Ishsizlik darajasi juda past (2009 yilda ishchi kuchining 4 foizi va faqat 0,2 foizi rasman ishsiz sifatida ro'yxatga olingan), biroq rasmiy sektorda ishchi kuchining katta va tobora o'sib borayotgan qismi bo'lgani kabi, norasmiy sektorda ham ishchi kuchi samarasiz va kam haq to'lanadigan ishlar bilan mashg'ul. Mazkur ish o'rinlari, oilalar ehtiyojlarini qondirish va ularni kam ta'minlanganlikdan himoya qilish uchun etarli daromad keltirmaydi.

2.2. Aholining ijtimoiy farovonligi va uning o'sishi

O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan bir qatorda turadi. Dunyo miqyosida o'rtacha ta'lim indeksi ko'rsatkichi 0,77 ga teng bo'lgan holda O'zbekistonda bu ko'rsatkich 0,9930 ni tashqil qiladi. 2009 yilda 7-15 yoshdagi bolalarning 99,3 foizi boshlang'ich maktablarda umumta'lim bilan qamrab olingan. 2006 yilda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan YuNISEF ko'magida o'tkazilgan klaster tadqiqoti boshlang'ich maktab ta'limining 100 foiz ta'minlanishi va maktabga qabul qilishda jinslar o'rtasidagi tengsizlikning yo'qligini tasdiqladi.

Biroq ayrim ma`lumotlarga ko`ra, qizlar maktabning yuqori sinflariga yoki kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga doim ham boravermaydi. O`rta ta`lim muassasalari, odatda, shaharlarda joylashgan, bu esa qishloq yoshlari uchun transport va boshqa xarajatlarning yuqori bo`lishiga olib keladi. 2004 yilda o`rtacha ta`lim muddati 12 yilga teng bo`lib, bu rivojlanish darajasi o`rtacha bo`lgan boshqa mamlakatlardan ancha yuqoridir. Bepul ta`lim barcha toifadagi oilalar uchun ularning moddiy maqomidan qat`i nazar hamma uchun ochiq. Buning ustiga, kam ta`minlangan oilalarning bolalari qishki kiyim-kechak va oyoq kiyimlari, darsliklar va o`quv qurollarini xarid qilishlari uchun davlat tomonidan qo`shimcha yordam oladilar.

Keyingi yillarda bolalarni maktabgacha ta`lim muassasalariga qabul qilish darajasi pasaygan bo`lib, bu ayollarga bola 3 yoshga to`lgunga qadar qisman haq to`lanadigan ta`til berish va shu tariqa uni uy sharoitida tarbiyalash imkoniyatining berilishi bilan bog`liq. Bolalarni maktabgacha ta`lim bilan ta`minlanish darajasi pasayishining yana bir boshqa sababi, ota-onalar maktabgacha ta`lim muassasalariga to`laydigan to`lovining oshganligidir. Bu borada shahar va qishloq bolalari o`rtasida farq mavjud (maktabgacha ta`lim muassasalaridan foydalanish darajasi shaharlarda 35 foiz va qishloq joylarida 15-17 foizni tashqil qiladi).

O`zbekistonda umumiy boshlang`ich ta`lim va maktab o`quvchilari o`rtasida jinslar tengligi real voqelik hisoblanadi. SHu sababli, O`zbekiston MTM-2 va MTM-3 bo`yicha "MTM plyus"ni shakllantirishga qaror qilinib, boshlang`ich va o`rta ta`lim ("baza") sifatini yaxshilash bo`yicha asosiy maqsadlar belgilandi. O`zbekistonda majburiy o`rta ta`lim hozirgi kunda 12 yilni tashqil qiladi. Umumiy o`rta ta`limning oxirgi yillarida o`quvchilar, odatda, OO`Yu qoshida faoliyat ko`rsatadigan litseylarda, shuningdeq kasb-hunar kollejlarda o`qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ukuv yurtlarida aralash byudjet va shartnoma tizimi joriy qilingan. Kirish testlari topshirishda eng yuqori ball to`plagan

abituriyentlar bepul (barcha talabalarning 40 foizi atrofida), belgilangan o`rta ballidan kamroq ball to`plaganlar esa pullik asosda ta`lim oladilar. Biroq bunday yondashuv, ko`proq ta`minlangan oilalarning bolalarini OO`Yuda bepul ta`lim olishlari uchun qulay sharoit yaratadi, chunki ular o`z farzandlarini OO`Yuga kirishga xususiy tayyorlov (repetitorlik) tizimi orqali yaxshiroq tayyorlash imkoniga ega bo`ladilar. Y`rkaklar va ayollar o`rtasida, shahar va qishloq o`rtasida, shuningdek, turmush farovonligi darajasi bo`yicha OO`Yuga qabul darajasida farqlanish mavjud. Oliy o`quv yurtiga qabul darajasi aholining oliy kvintili uchun 13 foiz (shaharlarda 17 foiz), quyi kvintil uchun 1,7 foizni tashqil qiladi. Bu esa oliy ta`limga davlat subsidiyalari, kam ta`minlangan oilalar o`rtasida oliy ma`lumot darajasini olishni qo`llab-quvvatlashga to`liq yo`naltirilmayotganligidan darak beradi.

O`zbekiston hukumati Onalar va bolalar skriningi (1998 y.), Sog`lom avlod (2000 y.), Onalik va bolalikni saqlash (2001 y.)ga oid dasturlari hamda ayollar va yosh avlod salomatligini mustaqamlashga yo`naltirilgan boshqa chora-tadbirlari, shuningdek, oilaning turmush tarzini yaxshilashning eng muhim maqsadlariga erishish bo`yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash yo`lida qator ishlar amalga oshirildi. Bu sa`y-harakatlar tufayli O`zbekiston chaqaloqlar, bolalar va onalar o`limi darajasini sezilarli kamaytirishga erishdi.

O`zbekiston aholisining o`rtacha umr ko`rish yoshi 1990 yildagi 69,3 yoshdan 2010 yilda 73,0 yoshga oshdi, bunda respublikada erkaklar va ayollar o`rtasidagi farq o`rtacha 1990 yilda 6,3 yildan 2010 yilda 4,7 yilgacha qisqardi. O`zbekistonda umr o`zoqligi ko`rsatkichlari MDh mamlakatlarining ko`pchiligidan sezilarli darajada yuqori bo`lib, uni dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan taqqoslasa bo`ladi.

Mamlakat xukumatidan ko`rilgan chora-tadbirlar natijasida 2010 yilda 1991 yilga nisbatan chaloqlar o`limini yarmiga (har 1000 ta chaqaloqqa 35 tadan 10,9

tagacha), bolalar (5 yoshgacha) o`limini esa 48 tadan 16,8 tagacha qisqartirishga erishildi (8-jadval).

8-jadval

1991-2010 yillarda chaqaloqlar va bollar o`limi darajasi (har 1000 ta chaqaloqqa to`g`ri keladigan o`limlar soni)

	1991	2000	2005	2008	2009	2010
CHaqaloqlar o`limi darajasi	35,3	18,9	14,9	12,5	11,7	10,9
Bolalar o`limi darajasi	48,0	28,5	20,6	17,3	17,1	16,8

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko`mitasi

Ayollarda reproduktiv salomatlik va bolalar salomatligini mustahkamlash bo`yicha kompleks dasturlarini joriy qilish, kasalxona va ambulatoriya klinikalarida maxsus ona va bolani davolash hamda profilaktika bo`linmalari, turli zamonaviy kontratseptiv vositalardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, tug`ish o`rtasidagi oralig`ning uzoq bo`lishini rahbatlantirish onalar va bollar salomatligini mustahkamlashga yordam berdi.

1991 yildan boshlab onalar o`limi darajasi har 100 mingta yangi tug`ilgan chaqaloqqa nisbatan 65,3 dan 2009 yilda 30,4 gacha qisqardi. Kontratseptiv vositalarning biron turidan foydalanuvchi reproduktiv yoshdagi ayollar ulushi 1991 yilda 13 foizdan 2009 yilda 63 foizgacha o`sdi; har 100 ta tug`ruqqa to`g`ri keladigan aborotlar soni 1991 yilda 11,2 tadan 2009 yilda 6,2 tagacha kamaydi; 20 yoshgacha bo`lgan ayollar o`rtasida tug`ish esa 1991 yilda 7 foizdan 2009 yilda 3,7 foizgacha qisqardi. (2.4.3-jadval).

O`zbekistonda VICH/OITS ga qarshi kurash bo`yicha ommaviy sa`y-xarakatlarga muvofiq, ushbu kasallikning tarqalishini oldini olish va davolashni nazorat qilish bo`yicha faol choralar ko`rildi. 2000 yildan boshlab OITSning yangi holatlari soni 2000 yilda 154 tadan 2008 yilda 2198 tagacha barqaror o`sib kelgan. Ruyxatga olingan holatlar umumiy soni 7600 ga etdi. Yng ko`p holatlar Toshkent shahri (28%) va Toshkent viloyatida 14 (foiz) kuzatildi. SHundan 18 foizga yaqini

ayollar, 1,5 foizni esa bolalar tashkil qiladi. Ushbu kasallikka chalinish holatlari in`eksion giyoxvandlik vositalarini iste`mol qiluvchi shaxslar kabi zaif guruhlarda ko`p uchraydi (2004 yildagi yangi holatlarning 59 foizdan ortig`ini tashkil g`iladi). Sil yug`umli kasallik bo`lib, turmush darajasini etarli ravishda aks ettirradi. Sil bilan kasallanish darajasi 2008 yilda har 100000 kishiga 76 holatni tashkil qildi. SHuningdek, bolalar o`rtasida yangi xolatlar soni ham o`smoqda. Xududlar o`rtasida sezilarli farq kuzatilmoqda. Ayrim tumanlarda silning tarqalganlik darajasi tashvishli darajaga etgan (masalan, Orol dengizi xavzasida kasallik darajasi yuqori).

O`zbekiston xukumati ushbu yo`nalishda zarur qadamlarni qo`ydi: masalan, 1998 yilda mamlakat tomonidan "DOTS" (To`g`ridan-to`g`ri kuzatuv ositada silga qarshi terapiyaning qisqa muddatli kursi) xalqaro loyihasi qabul qilindi, mos keluvchi tibbiy uskunalar bilan jihozlangan silga qarshi kurash muassasalari tarmoqi yaratildi. Penitentsiar muassalarda sil bilan kasallanish va silning tarqalishini oldini olish bo`yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2004-2010 yillar davomida sil bilan kasallanishini kamaytirish va uning oldini olish strategik dasturi joriy qilindi. Bunda sil bilan kasallanganlarning 85 foizini davolash va 70 foizini kasallikning ilk bosqichda aniqlash taxmin qilingan. Ushbu dasturni amalga oshirish respublikada Ming yillik rivojlanishi maqsadlaridan biri deb tan olingan.

Davlat tomonidan ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag`lar o`sib bormoqda. Agar davlat byudjetidan ijtimoiy maqsadlar uchun ajratilayotgan mablaqlar ulushi 1990 yilda 31,5% ni, 2000 yilda 42,5%ni tashkil etgan bo`lsa, 2010 yilda 58,8 %ga o`sdi (9-jadval).

Ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan davlat mablag`larining YaIMdagi ulushi nisbatan baland bo`lsa-da biroq 1998 yildan boshlab pasayishi tendentsiyasi kuzatildi.

Davlat byudjeti mablag`larning katta qismi ta`lim, sog`liqni sohasiga yo`naltirilgan. Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to`lovlariga ajratilgan mablag`lar miqdori ham o`sib bormoqda.

O`zbekistonda o`ziga xos mahalla instituti orqali amalga oshirilayotgan maqsadli ijtimoiy ta`minot tizimi, garchi ayrim kamchiliklarga ega bo`lsa-da, boshqa har qanday tizim bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko`rsatmoqda.

Ushbu tizimning uzluksiz monitoringini o`tkazish va uning samaradorligini oshirish uchun mos keluvchi muhim o`zgarishlarni kiritish zarur. Ilk

9-jadval

O`zbekiston davlat byudjetidan xarajatlar tarkibining o`zgarishi dinamikasi (%)

Ko`rsatkichlar	1990 y	2000 y	2010 y
Xarajatlar, jami	100	100	100
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash	31,5	42,5	58,8
Ulardan			
Ta`lim	17,9	23,3	33,3
Sog`liqni saqlash	10,0	8,7	12,4
Madaniyat va sport	1,2	1,8	1,2
Fan	0,5	0,5	0,6
Ijtimoiy ta`minot	1,2	0,5	0,4
Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to`lovlari	0,7	5,8	10,6
2. Iqtisodiyot	40,7	9,2	11,6
3. Markazlashgan investitsiyalar	16,6	20,4	6,0

tadqiqotlarning ko`rsatishicha, bollar nafaqa to`lovlari dasturi ijtimoiy yordam dasturiga qaraganda, maqsadli guruhga erishishga nisbatan yaxshiroq ishlaydi. Kam ta`minlangan uy xo`jaliklarining katta qismi nafaqa to`lovlari olishi va to`lovlarning katta qismi, garchi nisbatan yuqori kvintillarga o`tib ketish qollari kuzatilsa-da, quyi kvintillarga to`linishini ko`rsatmoqda (ya`ni nafaqa to`lovlari aktiv taqsimlanadi).

Mahallalar orqali maqsadli ijtimoiy yordam ko`rsatishning asosiy kamchiligi shundaki, maqsadli guruhni faqat har bir mahalla doirasida aniqlasa bo`ladi, mablag`larni boy jamiyatdan kambag`al jamiyat foydasiga qayta taqsimlash mexanizmi esa hali yo`q. Ajratilishi mumkin bo`lgan nafaqa to`lovlari xajmi yordamga muhtoj shaxslar soniga emas, balki har mahallaga ajratilgan mablag`lar umumiy xajmiga bog`liq bo`ladi. Tizimning ushbu kamchiligi maqsadli yordam ko`rsatish bo`yicha uning samaradorligini pasaytiradi.

Ijtimoiy yordamning umumiy qamrovi past (rasmiy statistika bo`yicha uy xo`jaliklari umumiy sonining 4 foizi), biroq u bolalar moddiy yordami bo`yicha ancha yuqori (barcha uy xo`jaliklarining 11 foizi va 16 yoshgacha bolali oilalarning 30 foizidan ortig`i). Biroq moliyaviy resurslar cheklangan xolatda, moddiy yordamlar xajmi va qamrovi o`rtasida muvozanat muammosi mavjud. Agar uy xo`jaligi yordam oladigan bo`lsa, uning xajmi samarali ijtimoiy ximoya uchun etarli bo`lmasligi mumkin. Bu qisman yordamlar xajmi, o`z navbati, kun ko`rish uchun zarur bo`lgan minimumga boqlab qo`yilgan eng kam ish haqi darajasiga bog`liqligidan kelib chiqadi. Bollarga moddiy yordam eng kam ish xaqining 50-175 foizi atrofida o`zgarishi (uy xo`jaligidaga bollar soniga qarab), ijtimoiy to`lovlar xajmi esa eng kam ish haqining 1,5 barobardan 3 baravarigacha o`zgarishi mumkin.

Ijtimoiy to`lovlar tizimiga, shuningdek, ishsizlik bo`yicha to`lovlar ham kiradi, ular nafaqalar singari kam ta`minlanganlikni kamaytirish imkoniyatiga ega emas, biroq mehnatga layoqatli aholini ishini yo`qotish bilan bog`liq daromadlarning

qisqarishidan himoyalash maqsadida xavfni boshqarish shakli hisoblanadi. O`zbekistonda mehnat bozoridagi mazkur vaziyatda ularning roli etarli emas. Aslida, yuqorida aytib o`tilganidek, turmush darajasi muammosi ishsizlikdan emas, balki qisman ishsizlikdan (yoki noto`liq bandlik) iborat.

Agar iqtisodiy qayta tarkibiy o`zgarishlar bilan birga xususiy sektorda ish o`rinlari sonining o`sishi ham ro`y berganida, ushbu moddiy yordam yanada muhimroq rol o`ynashi mumkin edi. Ushbu vaziyatda moddiy yordam ish topish davrida kafolat tayanchi bo`lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, har tomonlama dinamik o`sish bo`lmagani kabi, ishsizlik bo`yicha moddiy yordamlarning roli ham minimal bo`lib qolaveradi.

Amalda, bandlik Fondidan moddiy yordam ko`rsatish, faol chora-tadbirlarni moliyalashtirish, jumladan ish o`rinlarini yaratish, tayyorlash, ish izlash va jamoat ishlarini tashkil qilish uchun xam foydalaniladi. Byudjetning katta qismi ish o`rinlarini yaratishga (deyarli yarmi) past foizlarda kredit berish orqali sarflanadi. Biroq ishsizlar uchun uzoq muddatli va samarali bandlikni taklif etishda, ushbu chora-tadbirlar samaradorligini ko`shimcha baholash talab qilinadi.

2006 yilda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Ijtimoiy Kompleksi qoshida O`zbekiston bolalarning farovonligini ta`minlash bo`yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil qilindi. Kengash doimi faoliyat ko`rsatuvchi maslahat (kengash) organi bo`lib, u orqali O`zbekiston bolalarning huquq va manfaatlarini ta`minlash bo`yicha davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshirish ko`zda tutilgan.

Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo`nalishlari sifatida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- aholining reproduktiv salomatligini ximoya qilish tizimini takomillashtirish;
- "Onalar va bolalar skriningi" yordamida xomilador ayollar va tug`ilgan chaqaloqlarda tug`ma va isriy patologiyalarni erta bosqichda aniqlash Davlat tizimini yanada rivojlantirish;

- uzluksiz ta`lim tizimini rivojlantirish, reproduktiv salomatlikni asrash sohasida aholining bilim darajasi va mutaxassislar malakasini oshirish tibbiy madaniyatni oshirish;
- ayollarning reproduktiv salomatligi, bola tu`kish va tarbiyalashni yaxshilash bo`yicha xalqaro xamkorlikni kengaytirish;
- tug`ruqxona va bolalar shifoxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- respublika gematologiya xizmatini rivojlantirish;
- ilg`or xalqaro tajriba va xuquq tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan xolda onalik va bolalik oila manfaatlarini ximoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish hamda takomillashtirish;
- oilalarni mustahkamlash, bolalarning moddiy farovonligini yaxshilash, bollar va o`smirlar o`rtasida qarovosizlik xolatlarining oldini olish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish;
- aholining ijtimoiy jihatdan zaif qismi - nogironlar, etim bolalar va kam ta`minlangan oillara farzandlarining davlat tomoindan ijtimoiy muhofazasini ta`minlash.

Yaqin davr ichida rejalashtirilayotgan tashabbuslar sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- istiqbolda ham mavjud "Ijtimoiy ximoya" maqsadli dasturini izchil davom ettirish, yangi milliy va xududdiy dasturini izchil davom ettirish, yangi milliy va xududiy dasturda bolalarga yo`naltirilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish ko`zda tutiladi:
- "Mehribonlik" uylari va ixtisoslashgan maktab internatlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, boquvchisini yo`qotgan bolalarga g`amxo`rlik va e`tiborni kuchaytirish, "Sen yolg`iz emassan" olijanob shiorini xayotga tatbiq etish;
- jismonan sog`lom va ma`nan baquvat avlodni shakllantirish, onalik va bolalik haqida g`amxo`rlikni kuchaytirish bo`yicha chora-tadbirlarni yanada kengaytirish;

- ijtimoiy xizmat ko`rsatish tizimi, "Mehribonlik", "Sahovat" va "Muravvat" uylari xodimlari mehnatini munosib baholash va rahbatlantirish mexanizmini yanada takomillashtirish;
- yoshlarning xayotiy manfaatlarini ta`minlash, ularning salohiyati va qobiliyatlarini namoyish etish uchun sharoitlar yaratish, yosh oilalarni ularning mustaqil xayotga qadam quyishini ma`naviy va moddiy rag`batlantirish yo`li bilan qo`llab-quvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar taqdim etish;
- O`zbekiston bolalari farovonligini ta`minlash yo`lida qabul qilingan Xarakatlar Milliy Dasturini amalga oshirish.

2.3. Qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar

Alohida e`tibor qaratish lozim bo`lgan eng muhim ustuvor vazifalardan biri qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o`zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog`liq keng ko`lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqariø infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o`rni va ahamiyatini tubdan qayta ko`rib chiqish, fermer xo`jaliklari rivojini har tomonlama qo`llab-quvvatlash hisoblanadi.

qishloqda turmush darajasini yuksaltirish hamda qishloqlarimiz qiyofasini o`zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar ichida eng avvalo qishloqda yashayotgan aholi manfaatlarini yanada to`laroq ta`minlash maqsadida qonuniy-me`yoriy qujjatlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. CHunki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning amal qilish samaradorligi ko`p jihatdan ularning huquqiy va iqtisodiy asoslarini uyg`unlashtiruvchi yaxlit mexanizmning to`g`ri ishlab chiqilishiga bog`liq.

Bu borada fermer va dehqon xo`jaliklari to`g`risida, suv va suvdan foydalanish qonunlariga, Er kodeksiga va boshqalarga qo`shimcha kiritish va ko`rib chiqish lozim bo`ladi.

Ma`lumki, 1998 yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining "Fermer xo`jaliklari to`g`risida"gi hamda "Dehqon xo`jaliklari to`g`risida"gi qonunlari mamlakatimiz qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini samarali yo`lga qo`yish, unda xo`jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan shakllarini qaror toptirish va har tomonlama rivojlantirish uchun huquqiy asos rolini bajardi. Biroq, mamlakatimizdagi fermer va dehqon xo`jaliklari o`zining yanada rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlarni, imtiyoz va rag`batlantiruvchi omillarni belgilash, iqtisodiy dastak va mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi eng avvalo Ushbu jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qonunlarda o`z ifodasini topmoqi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tabiiy resurslar, eng avvalo, ularning qayta tiklanmaydigan turlari hisoblanuvchi er va suv resurslaridan tejamli va ehtiyotkorona foydalanish masalasini kun tartibiga qo`ymoqda. Ma`lumotlarga ko`ra, agar mamlakatimizda 1996 yilda 1 kishiga to`g`ri keluvchi ekin maydoni 0,171 gektarni tashkil etgan bo`lsa, 2006 yilga kelib bu ko`rsatkich 0,136 gektargacha, ya`ni 1,3 marta qisqargan. Bu esa Er kodeksi, suv va suvdan foydalanish bo`yicha qonunlarni yanada takomillashtirish zaruratini oshirmoqda. Ayniqsa, qishloq xo`jaligi ahamiyatidagi erlarning ushbu maqsadda foydalanish doirasidan chiqib ketishi jarayonlarini tartibga solishda er uchastkalarini noqishloqxo`jalik maqsadlariga ajratib berish bo`yicha nizomning ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi.

SHuningdek, qishloqlarimiz qiyofasini o`zgartirishda qishloq joylarda loyihalashtirish tizimini va qurilishni tubdan takomillashtirishga qaratilgan, jumladan, qishloq yashash joylarini bosh sxema va arxitektura loyihalari asosida qurish, maxsus loyihalashtirish tashkilotini, maxsus qishloq qurilish banki, maxsus qurilish tashkilotlarini tashkil qilish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarini tayyorlash va amalga joriy etish zarur.

Jumladan, qishloqda aholi joylari arxitekturasi va qurilishni loyihalashtirishni tubdan takomillashtirishda namunali qishloq uy-joylari va ijtimoiy ob`ektlarini qurish

loyihalarini tabiiy iqlim sharoitini hisobga olgan holda ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bu borada namunali uy-joylar loyihalarini eksperiment sifatida qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani, Andijon viloyatining Buloqboshi tumani, qoraqalpog'iston Respublikasining qo'ng'iroq tumanida yangi ilg'or qurilish texnologiyalari asosida amalga oshirilishi e'tiborga molikdir. Ayni paytda, mazkur tadbirlarni ommaga keng yoyish, ularni qo'llab-quvvatlash va rahbatlantirish, bu borada o'zaro musobaqalashuv ruhini shakllantirish maqsadida "Ying yaxshi qishloq" nomli tanlovning o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish ko'p jihatdan aholining sog'liqini saqlash, madaniyatini oshirish, ta'lim tizimi sifatini yanada ko'tarish bilan bog'liqdir. Bu esa, birinchi navbatda, investitsiya dasturlari asosida sog'liqni saqlash muassasalarini tibbiyot texnikasi va apparaturalar bilan ta'minlashni taqozo etadi.

SHuningdek, qishloq aholisining sog'liqini saqlash, madaniyatini oshirish, ta'lim tizimi sifatini yanada ko'tarishda quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni kuchaytirish ko'zda tutilmoqda:

- qishloq joylarda joylashgan mehribonlik va muruvvat uylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- qishloq aholisining sog'liqini saqlash bo'yicha madaniyatini oshirish, jumladan profilaktika va targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- xalqaro grantlar asosida maktab, akademik litsey va kollejlarda o'qituvchilarning malakalarini oshirish;
- qishloq maktablari va kollejlardagi axborot resurs markazlarini xalqaro internet tarmog'iga ulash va h.k.

Respublikamizda qishloq obodonligini hamda uning aholisi farovonligini ta'minlash davlatimiz iqtisodiy siyosatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlashning ahamiyatli chora-tadbirlari amalga oshirilishi natijasida mazkur ko'rsatkich sezilardi darajada o'sib bormoqda. Agar 1996 yilda qishloq uy-joy fondi 180,5 mln. kv. metrni tashkil etgan bo'lsa, 2006

yilda 240,9 mln. kv. metrغا etgan. Umuman olganda, 1996-2006 yillar davomida respublika bo`yicha jami uy-joy fondining o`shish darajasi 127,4% ni tashkil etgani holda, bu ko`rsatkich shaharda 118,6% ni, qishloqda 133,5% ni tashkil etgan. Bu esa qishloq farovonligi va obodonchiligining oshishida muhim shart-sharoit yaratadi.

"Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi doirasida qam qishloq aholisining uy-joy sharoitini yaxshilash chora-tadbirlarini kuchaytirish ko`zda tutilgan. Buning uchun eng avvalo yakka tartibda uy-joy qurish dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. SHu asosda qishloq joylarida 7100 ming kv.m uy-joy qurilishi amalga oshiriladi. Albatta, bu jarayonlarni moliyaviy jihatdan qo`llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar ajratish ko`zda tutilgan. SHunga ko`ra, 2010 yilda qishloq yashash joylarini to`la intenterizatsiyada o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

Uy-joy qurilishi ishlarini jadallashtirish, ularni izchil amalga oshirish maqsadida xususiy qurilish uyushmalari faoliyatini tashkil etishni yo`lga quyish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni aholi keng e`tiboriga etkazish borasida qishloqlarda qurilayotgan namunali uy-joylar to`g`risida axborot beruvchi "SHinam uy" teleko`rsatuvini tashkil etish ham ko`zda tutilgan.

Keyingi yillarda qishloqdagi aholining har 1 kishi hisobiga uy-joy bilan o`rtacha ta`minlanganligi oshib bormoqda. Ayni paytda, obodonchilik darajasining oshishiga ta`sir qiluvchi shart-sharoitlar ham yaxshilanib bormoqda. Masalan, tabiiy gaz bilan ta`minlanganlik darajasi 1996 yildagi 58,6% dan 2006 yilda 71,4% ga, vodoprovod bilan ta`minlanganlik darajasi 23,9% dan 45,1% gacha oshgan. Biroq, hali qishloq obodonchiligini ta`minlashda hal etilishi lozim bo`lgan muammolar ham mavjud. Jumladan, yillar davomida oshib borayotganligiga qaramay, bugungi kunda qishloqdagi uy-joylarning markaziy isitish vositalari (17%), kanalizatsiya (9%), issiq suv ta`minoti (2,3%), vanna (2%) bilan ta`minlanish darajasi juda past.

SHunga ko`ra, hozirda qishloq hududlarini suv bilan barqaror ta`minlash bo`yicha 1836 km yangi suv tizimini qurish, 304 ta ob`ektni rekonstruktsiya qilish, bu

boradagi 2010-2015 yillarga mo`ljallangan dasturni ishlab chiqish tadbirlarini ham o`z ichiga oladi. SHu qatorda 2009 yilda uzunligi qariyb 700 kilometrlik tabiiy gaz tarmoqlarini ishga tushirish, chekka tumanlarni suyultirilgan gaz bilan ta`minlashni tubdan yaxshilash belgilangan.

Qishloq joylarining obodonligi va aholisining farovonligini avtomobil' yo`llari va transport vositalari tizimisiz tasavvur etib bo`lmaydi. SHunga ko`ra, 2009 yilda qishloq joylarda avtomobil' yo`llarini rivojlantirish va transport xizmatini yaxshilash maqsadida 67 ta yangi avtomobil' marshrutini yo`lga qo`yish va 1913,9 km mahalliy yo`llarni ta`mirlash ko`zda tutilgan.

Aholi turmush darajasi ko`p jihatdan xizmat ko`rsatish va servis sohasining rivojiga bog`liq. Ayniqsa, aholiga maishiy xizmat ko`rsatish darajasi qishloqdagi turmush farovonligiga sezilarli ta`sir ko`rsatadi. 2010 yilda xizmat ko`rsatish va servisni yangi sifat darajasiga ko`tarish, jumladan, qishloqda xizmatlar sohasida 140 ming yangi ish joylari tashkil etish, 452 ta savdo magazinlari, 1856 ta maishiy xizmat korxonalarini, 500 dan ortiq minibanklar tashkil etish, qishloq aholi yashayotgan joylarda telefon va aloqa tizimini tubdan yaxshilash, sport va turizmni rivojlantirish tadbirlari belgilangan.

SHuningdek, qishloq joylarni obodonlashtirish ishlarini izchil tizimga solish, ularni muntazam ravishda olib borish maqsadida obodonlashtirish moddiy texnika bazasini mustahkamlashning 2009-2011 yillarga mo`ljallangan dasturini ishlab chiqish, obodonlashtirish ishlari tashkil qilish va rag`batlantirish qoidalarini tayyorlash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish o`z ichiga mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloqda yangi qurilish texnologiyalarini qo`llash ishlarini ham oladi. Bunda yangi qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish tadbirlari ko`zda

tutiladi. qishloq joylarida 77 ta yangi qurilish materiallari firma magazinlarini tashkil qilish ham shular jumlasidandir.

Qishloqni yoqilg'i energetika zaxiralari bilan barqaror ta`minlash uchun qulay sharoitni yaratish borasida mavjud elektr va gaz tarmoqlarini to`la inventarizatsiya qilish, yangi elektr va gaz tarmoqlarini qurish, mavjudlarini kapital ta`mirlash va rekonstruktsiya qilish, uzoq joylarda joylashgan qishloqlarni gaz va ko`mir bilan ta`minlashga mo`ljallangan servis markazlarini tashkil etish belgilangan.

III-BOB. "AHOI TURMUSH DARAJASI KO`RSATKICHLARI"
MAVZUSINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O`QITISH
USLUBIYOTI.

Ma`ruza mashg'ulotida o`qitish texnologiyasi


Vaqti - 2 soat	Talabalar soni: 30- 60 nafar
O`quv mashg'ulotining shakli	ma`ruza
Ma`ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Aholi turmush darajasining iqtisodiy mohiyati. 2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. 3. Turmush sifatini oshirish yo`llari. 4. O`zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish yullari.
<i>O`quv masg'ulotining maqsadi: aholi turmush darajasining iqtisodiy mazmuni, uning tengsizligi av turmush sifatini oshorish yullari tog`risida chuqurraq bilim berish.</i>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - aholi turmush darajasi haqida ma`lumot berish; - aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko`rsatkichlar tizimini sharhlash; - daromadlar tengsizligi sabablarini tushuntirish; - O`zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish yullarini yoritib berish. 	<p><i>O`quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - aholi turmush darajasiga ta`rif beradi; - aholi turmush darajasini ifodalovchi ko`rsatkichlarni sanaydi; - daromadlar tengsizligi sabablarini aytib beradi; - O`zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish yullarini aytib beradi.
O`qitish uslubi	Mualliflik ma`ruzasi
O`qitish shakli	Frontal, jamoa bo`lib ishlash.
O`qitish vositalari	Ma`ruza matni, flip chart, marker, skotch.
O`qitish sharoitlari	Jixozlangan auditoriya

Ma`ruzaning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1 Mavzuning maqsadi, rejasi va kutilayotgan o`quv natijalarini ma`lum qiladi.	1.1. Eshitadilar. yozadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Aholining turmush darajasi tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida talabalarga savol bilan murojat qiladi. "Turmush darajasi nimani anglatadi?" Javoblarni tinglaydi va oxirida uzining fikrini bildiradi (3.1-ilova)</p> <p>2.2. Talabalarni aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari bilan tanishtirib o'tadi (3.2-ilova).</p> <p>2.3. Inson salohiyatini rivojlantirish indeksiga ta'rif berib o'tadi va uni dunyoning barcha davlatlarida ushbu indeksni darajasini namoyish etadi (3.3 -ilova)</p> <p>2.3. Daromadlar tengsizligi va uni Lorents egri chizig'idagi (3.4-ilova) hamda Jini koeffitsienti (3.5,3.6-ilova) orqali ifodasini yoritib beradi.</p> <p>2.4. New economic foundation tomonidan o'tqazilgan tadqiqotlar natijasida Insonlarning baxtlilik darajasini ifodalaidgan indeksni dunyoning barcha davlatlardagi darajasini namoish etad I (3.7-ilova).</p> <p>2.5. Va Power Point orqali har uchala indeksni taqqosladi.</p> <p>2.6. O`zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish borasidagi o'tqazilayotgan chora-tadbirlarni taqdimot oqali tushuntirib o'tadi.</p> <p>2.7. O'tilgan materialni mustahkamlash uchun "besh daqqiqalik esse" (3.8-ilova) vazifasini beradi.</p>	<p>2.1. Yshitadilar va savolarga javob beradilar. Klaster tuzadilar.</p> <p>2.2. Daftarga yangi ta`rif va tushunchalarni, savoldan olgan javobni konspekt qiladi.</p> <p>2.3. Tinglaydilar.</p>

3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, javoblarni to`ldiradi, xulosalar chiqaradi, faol ishtirokchilarni rahbatlantiradi. 3.2. Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq beradi: masala echish (3.9-ilova).	3.1. Eshitadilar, yozib oladilar, aniqlashtiradilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.
------------------------------------	---	---

3.1- ilova




3.2- ilova


**AHOLI TURMUSH
DARAJASINING
KO`RSATKICHLAR
TIZIMI GURUHLARI**

- 1) tug`ilish va o`lish darajasi hamda boshqa demografik ko`rsatkichlar;
- 2) hayot kechirishning sanitar-gigiena ji`atidan sharoitlari;
- 3) oziq-ovqat tovarlarini iste`mol qilish;
- 4) turar joy sharoitlari;
- 5) ma`lumot va madaniyat;
- 6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- 7) aholining daromadlari va xarajatlari;
- 8) hayot kechirish qiymati va iste`mol narxlari;
- 9) transport vositalari;
- 10) dam olishni tashkil etish;
- 11) ijtimoiy ta`minot;
- 12) inson erkinligi.

3.3- ilova



3.4- ilova




3.5- ilova


Jini koeffitsienti

- Yalpi daromadning aholi guruhari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi ko'rsatkichidan foydalanishni ifodalaydi. Jini koeffitsienti chizmadagi Lorents egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chiziq'i o'rtasidagi yuzaning 0FE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol')ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

3.6-ilova



3.7- ilova



3.8- ilova

ESSE

ESSE - taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

ESSE - bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse - oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida oʻquv mashqulotida oxirida 5 daqiqa oraligʻida olib boriladi

Masalani eching.

1. AQSH da kambag'al aholining 20 % i yalpi daromadning 4,7% ini, boy kishilarning 20% i esa yalpi daromadning 42,7% ini oladi. Ushbu ma'lumotlar asosida Lorents egri chizig'ini chizing va DJ ini koeffitsentini toping.

2. Quyidagi jadvalda oila a'zolarining bir yil davomidagi daromadlari ko'rsatilgan.

Oila a'zo	Faoliyati	Daromadi (so'm)
Otasi	O'qituvchi	30000
Onasi	Vrach	28000
O'g'li	Talaba	12000
Qizi	O'quvchi	-
O'gli	Bog'cha tarbiyalanuvchisi	-

Agar minimal ish haqi darajasi 8000 so'm bo'lsa, bu oila kam ta'minlangan oilalar qatoriga kiradimi?

Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi.

Vahti - 2 soat	Talabalar soni: 15-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar
Seminar mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> Aholi turmush darajasining iqtisodiy mohiyati. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Turmush sifatini oshirish yo'llari. O'zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish yullari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> ma'ruza darsida olingan bilimlarni	

kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - darslik bilan mustaqil ishlash ko`nikmalarini hosil qilish; - bilimlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish ko`nikmalarini shakllantirish; - kommuniktsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish. 	<p><i>O`quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - aholi turmush darajasiga ta`rif beradilar; - turmush darajasi ko`rsatkichlarni sanab beradi va tushuntiradi; - aholining nominal va real daromadlariga tavsiflaydi; - Lorents egri chizig`ini tasvirlaydi va ifodalaydi; - O`zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish yullarini tushuntaradi.
O`qitish usullari va texnikasi	hamkorlikda o`qish, munozara, texnika: taqdimot, blits-so`roâ.
O`qitish shakli	Individuall, frontal, guruh va juftliklarda ishlash.
O`qitish vositalari	O`quv qo`llanmalar, markerlar, skotch, A32 bichimdagi qohoz varoqlari.
O`qitish sharoitlari	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya

Seminar mashg`ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o`qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish tartibini aytadi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar
2-bosqich.	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy	2.1. Iqtisodiy

<p>Asosiy (60 min.)</p>	<p>tushunchalarga ta`rif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-so`rov o`tkazadi (4.1-ilova)</p> <p>2.2. Talablalarni erkin tarzda 4 ta guruhga ajralishlarini so`raydi. har bir guruhdan bir talaba qisqa esse yozadi (4.2-ilova).</p> <p>2.3. Guruhning boshqa a`zolari rejani bitta savoli bo`yicha muhokamani amalga oshiradi va taqdimotga tayyorlaydi.</p> <p>Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslaqatlar beradi.</p> <p>Taqdimotni tashkillashtiradi, fikrlarni umulashtiradi, aniqliklar kiritadi.</p> <p>2.4. Faol ishtirok etmagan talabalarga test beradi (4.3-ilova).</p>	<p>tushunchalarga ta`rif beradilar.</p> <p>2.2. Esse yozadilar va o`qib beradilar.</p> <p>2.3. Reja savoli bo`yicha muhokamani amalga oshiradi va taqdimot qiladi.</p> <p>2.4. Boshqa guruhga savollar beradi va to`ldiradi.</p> <p>2.4. Test ishlaydi va o`qituvchiga beradi.</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (10 min.)</p>	<p>3.1. Mashg`ulotga yakun yasaydi, xulosalarni umumlashtiradi, talabalarni baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: talabalarga yangi mavzu bo`lib beriladi.</p>	<p>3.1. Y`shitadilar, yozib oladilar.</p> <p>3.2. Topshiriqlarni yozib oladi.</p>

4.1- ilova

Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar

Aholi turmush darajasi	
Inson salohiyatini rivojlantrish indeksi	
Daromad	
Nominal daromad	
Real daromad	
Daromadlar tengsizligi	
Lorents egri chizig'i	
Djini koeffitsienti	
Oila byudjeti	
Ijtimoiy siyosat	
Ijtimoiy himoya	

4.2-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a`zosi:

- o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;
- yordam so`rganlarga ko`mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- - "Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

4.3-ilova

Test.

1. quyidagilardan qaysi biri aholi daromadlari tarkibiga kirmaydi?

a) foiz, dividend, renta;
b) davlat sug'urtasi bo'yicha to'lovlar;
v) mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'molchilari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari;

g) ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad;
d) soliqlar.

2. qaysi daromad turi xodimlar mehnatining natijasiga bog'liq?

a) ish haqi;

b) dividend;

v) foiz;

g) renta;

d) ijara haqi.

3. "Transfert to'lovlari" - deganda:

a) bozor sektoriga yollangan ishchilarning ish haqi;

b) davlat sektoridagi xizmatchilarning daromadlari;

v) yirik kompaniyalar va tadbirkorlar foydasi;

g) kichik mulkdorlar daromadi (foyda, renta, foiz, dividend);

d) kam ta'minlangan aholi guruhlariga, nogironlarga, qariyalarga, boquvdagi kishilarga, ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar.

4. Aholi real daromadining o'sishi qaysi holda ro'y beradi?

a) nominal daromad va narxlarning o'sishi mutanosib bo'lganda;

b) nominal daromad narxlardan tez o'sganda;

v) narxlar nominal daromaddan tez o'sganda;

g) soliqlar va majburiy to'lovlar nominal daromaddan tez o'sganda;

d) iste'mol bozorining to'yinganlik darajasi pasayganda.

5. Bozor munosabatlari o'tishning ilk davrida biz aholini ijtimoiy himoyalashning qaysi yo'lidan bordik?

a) ishsizlarni himoyalash yo'lidan;

b) nafaqaxo`rlarni, talabalarni himoyalash yo`lidan;

v) o`quvchi yoshlarni, 2 yoshga etmagan bolalarni himoyalash yo`lidan;

g) butun aholini himoyalash yo`lidan;

d) 2-jahon urushi va Afg'oniston urushi qatnashchilarini himoyalash yo`lidan.

6. BMT Bosh Assambleyasi qaysi yilni "qashshoqlikni tugatish yili" deb e`lon qildi?

a) 1991 yilni;

b) 1993 yilni;

v) 1994 yilni;

g) 1995 yilni;

d) 1996 yilni.

Xulosa

Biz malakaviy bitiruv ishimizni yozib, quyidagi xulosa va takliflarni kiritishimiz maqsadga muvofiq:

1. Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

2. Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

3. Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

4. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish - bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

5. Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish maqsadida 2011 yilda ko'rilgan amaliy choralar natijasida 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda tashkil etildi, 2010 yilda 2000 yilga nisbatan o'rtacha ish haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

6. 2011 yil 1 yanvar' holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanganlik darajasi shahar joylarida 85 foizni, qishloq joylarida esa 78,7 foizni tashkil etdi. SHu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani

tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

7. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga bilim berish, jumladan Buxoro Davlat universitetida, ko'nikma va malakalar hosil qilish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy zaruratga aylandi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlarning samaradorligini oshirish, bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardosh, o'z kasbining bilimdoni va mohir egasi bo'lgan kadrlarni tayyorlashda pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy fanlarni uqitishda texnologik xaritadan foydalanish maqsadga muvofiq. Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

1. Pedagogik texnologiya barkamol insonni shakllantirishni kafolatlovchi jarayonni tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan pedagogik texnologiya tahsil oluvchini mustaqil mutolaa qilish, bilim olish, erkin fikrlay olishga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Buxoro davlat universiteti ijtimoiy iqtisodiy fakul'teti professor-o'qituvchilari tomonidan darslarda ta'lim texnologiyalardan foydalanish darsni samaradorligini oshirishini ta'minlaydi.

2. "Axolining turmush darajasi ko'rsatkichlari" mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish. Jumladan, hamkorlikda o'qish, klaster, munozara, texnika: "kop-kop", taqdimot, blits-so'rov.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T: O'zbekiston, 2003. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" /Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) /. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:O'zbekiston. 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr', PF-4053-son.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T: O'zbekiston, 2011.
5. Prezident Islom Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi.17.02.2012.http://www.press-service.uz/uz/news/show/main/vyistuplenie_prezidenta_respubliki_uz_15/
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43- yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqi. http://www.press-service.uz/uz/news/show/dokladi_posledovatelnoe_prodoljenie_kursa_na_1/page/2/. [03.05.2010].112 KB.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. - T: O'zbekiston, 2009. - 56 b.
8. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari

va 2012 yilda O`zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma`ruzasi// Xalq so`zi, 2012 yil 20 yanvar', 14 Karimov I.A. Yng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. - 24 b.

9. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. - T.: "Ma`naviyat", 2009.
10. Karimov I.A. Bizning yo`limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo`lidir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda qilgan ma`ruzasi. - "Xalq so`zi" gazetasi.
11. Averin A.N. Gosudarstvennaya sistema sotsial'noy zashiti naseleniya. Moskva: RAGS, 2007.
12. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: TDPU, 2003.
13. Axliddinov R.SH. Ta`limni boshqarish metodlari. J.: Xalq ta`limi, 6-son, 2001.16-22 - b.
14. Борисов Е. Ф. Экономическая теория. Учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005
15. Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. - T.: SHarq, 2003.
16. Golish L. Zamonaviy ta`lim texnologiyalari. J.: Xalq ta`limi, 3-son, 2000.- 24-31-b.
17. Голиш Л.В. Технологии обучения на лекциях и семинарах/Учебное пособие// Под общей редакцией академика С.С.Гулямова. - Т.:ТГЭУ, 2005.
18. Дистанционное экономическое образование. Гулямов С.С. и др. – Т.: Шарк, 2004.
19. Иохин В.Я. Экономическая теория: Учебник / В.Я. Иохин. – М.: Экономистъ, 2005

20. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari pedagog - o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste`dod, 2008. 180 b.S.Isamitdinov. "Ta`lim va inovatsion usullar". Uslubiy tavsiyanoma. T.: RTM. 2005.
21. S.Isamitdinov. "Ta`limning qiziqarli, faol usullari". Uslubiy tavsiyanoma. T.: RTM. 2005.
22. Yo`ldoshev J.h., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. qo`llanma. T.: O`qituvchi. 2004.
23. Kasbiy pedagogika. Muallif (tuzuvchilar: q.Tolipov, M.Barakaev, SH.SHaripov.T.:TDIU, 2001
24. Методы эффективного обучения взрослых // Учебно-методическое пособие. М.: ИПК госслужащих, 1998.
25. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -qarshi. Nasaf, 2000.
26. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o`zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo`llanma. (Bekmurodov A.SH., Gimranova O.B., SHamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. - 92 b.
27. O`lmasov A., Vaxobov A. - Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o`quv yurtlari uchun darslik./ O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi. – T.: «Sharq» ... kompaniyasi bosh taxriri. – 2006.
28. Pardaev M.h. Iqtisodiyotga oid fanlarni yangi pedagogik texnologiya metodlarini qo`llab o`qitish /Uslubiy ko`rsatma. -Samarqand, 2007.
29. Политика доходов и заработной платы: учебник /И.М. Алиев, Н.А. Горелов. – Ростов н/Д: Феникс, 2008.
30. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). -T.: Moliya nashriyoti. 2003.
31. Saidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo`llash namunalari. T.: RTM.2000.

32. Tolipov O`q. O`qituvchilar tayyorlashda yangi pedagogik Texnologiyalar T., "Xalq ta`limi", 2000y. 12.
33. SHodmonov SH.SH., Alimov R.q., Jo`raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: "Moliya" nashriyoti, 2002.
34. SHadmonov SH.SH., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii/ Metodicheskoe posobie. T.:I-y Tsentr "Yangi asr avlodi", 2004.
35. SHermatova M.A. Iqtisodiyotda ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. Tezisi dokladov Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii na temu: "Informatsionno-resursnoe obespechenie visshego ekonomicheskogo obrazovaniya v usloviyax modernizatsii ekonomiki: opit, rezul'tati i perspektivi". T.: Ekonomika, 2009 ., 111b
36. Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 584-бет.
37. g`oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. - T.: Fan, 2005.
38. . qurbonov SH. Kadrlar tayyorlash va milliy istiqlol g`oyasi. J.: Xalq ta`limi, 1-son, 2001. 4-13 b.
39. O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2010 yildagi asosiy ko`rsatkichlari. - T. 2011. - 92 b.
40. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining 2009, 2010, 2011 yillar bo`yicha statistik to`plamlari.

Интернет сайтлари:

1. <http://www.economyfaculty.uz>
2. <http://www.economics.com.ua>
3. <http://www.humanities.edu.ru>

4. <http://www.belpages.com>

5. <http://www.boltalka.com.ua>.

1-ilova

**Dunyoning barcha mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
yalpi ichki mahsulot**

(AQSH dollarida)

№	Mamlakat	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAlpi ichki mahsulot (AQSH dollarida)	№	Mamlakat	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAlpi ichki mahsulot (AQSH dollarida)
1	Luxembourg	108,831.70	92	Macedonia	4,431.13
2	Norway	84,443.63	93	China	4,382.14
3	Qatar	76,167.85	94	Bosnia and Herzegovina	4,318.68
4	Switzerland	67,246.00	95	Svalbard and Jan Mayen Islands	4,200.47
5	United Arab Emirates	59,716.85	96	Belize	4,158.71
6	Denmark	56,147.14	97	Ecuador	3,983.80
7	Australia	55,589.55	98	Turkmenistan	3,939.17
8	Sweden	48,874.61	99	El Salvador	3,700.76
9	United States	47,283.63	100	Albania	3,676.95
10	Netherlands	47,172.14	101	Tonga	3,518.29
11	Canada	46,214.91	102	Fiji	3,517.83
12	Ireland	45,688.76	103	Morocco	3,248.95
13	Austria	44,986.58	104	Cape Verde	3,156.63
14	Finland	44,488.64	105	Swaziland	3,061.11
15	Singapore	43,116.69	106	Indonesia	3,015.37
16	Japan	42,820.39	107	Ukraine	2,999.63
17	Belgium	42,630.11	108	Congo, Republic of	2,983.47
18	France	41,018.60	109	Vanuatu	2,896.35
19	Germany	40,631.24	110	Guatemala	2,887.64
20	Iceland	39,025.70	111	Paraguay	2,885.79


21	Kuwait	36,412.00	112	Syria	2,877.35
22	United Kingdom	36,119.85	113	Guyana	2,868.14
23	Italy	34,058.72	114	Armenia	2,845.76
24	New Zealand	32,145.23	115	Egypt	2,788.83
25	Hong Kong	31,590.68	116	Georgia	2,658.02
26	Brunei Darussalam	31,238.64	117	Iraq	2,563.54
27	Spain	30,639.30	118	Sri Lanka	2,435.13
28	Israel	28,685.62	119	Mongolia	2,226.98
29	Cyprus	28,236.97	120	Honduras	2,015.58
30	Greece	27,301.54	121	Philippines	2,007.36
31	Slovenia	23,705.69	122	Bhutan	1,978.28
32	Bahamas	21,878.57	123	Bolivia	1,858.14
33	Portugal	21,558.78	124	Sudan	1,705.32
34	Korea	20,590.96	125	Moldova	1,630.41
35	Bahrain	20,474.82	126	Papua New Guinea	1,488.03
36	Malta	19,746.38	127	Kiribati	1,479.18
37	Oman	18,656.96	128	Nigeria	1,389.31
38	Taiwan	18,457.75	129	Djibouti	1,383.05
39	Czech Republic	18,288.28	130	Uzbekistan	1,380.25
40	Saudi Arabia	16,995.78	131	Solomon Islands	1,340.38
41	Slovakia	16,103.99	132	Ghana	1,311.63
42	Estonia	14,835.96	133	Yemen	1,281.81
43	Guam	14,326.46	134	India	1,264.84
44	Croatia	13,720.24	135	Zambia	1,221.36
45	Hungary	12,879.30	136	Mauritania	1,194.85
46	Antigua and Barbuda	12,848.66	137	Sao Tome and Principe	1,183.28
47	Poland	12,300.13	138	Vietnam	1,173.55
48	Uruguay	11,997.90	139	Nicaragua	1,126.55
49	World Average	11,854.11	140	Cameroon	1,100.60
50	Chile	11,827.96	141	Pakistan	1,049.75
51	Libya	11,314.15	142	ivory Coast	1,036.16

52	Lithuania	11,043.84	143	Laos	984.153
53	Equatorial Guinea	11,033.26	144	Senegal	980.929
54	Brazil	10,816.49	145	Kyrgyzstan	863.654
55	Latvia	10,694.59	146	Lesotho	836.863
56	Seychelles	10,681.88	147	Cambodia	813.798
57	Russia	10,437.49	148	Kenya	809.287
58	Turkey	10,398.69	149	Comoros	802.475
59	Macau	10,044.16	150	Chad	767.733
60	Venezuela	9,960.45	151	Tajikistan	740.52
61	Saint Kitts and Nevis	9,635.99	152	Myanmar	701.993
62	Mexico	9,565.96	153	Mali	691.637
63	Argentina	9,138.18	154	Benin	689.461
64	Kazakhstan	8,882.97	155	Haiti	672.918
65	Gabon	8,724.23	156	Bangladesh	637.908
66	Malaysia	8,423.18	157	Gambia	616.555
67	Costa Rica	7,842.86	158	<u>Burkina Faso</u>	597.534
68	Botswana	7,627.46	159	<u>Zimbabwe</u>	594.332
69	Mauritius	7,593.26	160	<u>Timor Leste (East Timor)</u>	588.427
70	Panama	7,592.54	161	<u>Rwanda</u>	562.313
71	Romania	7,542.25	162	<u>Nepal</u>	561.872
72	South Africa	7,157.80	163	<u>Tanzania</u>	548.282
73	Suriname	6,975.45	164	<u>Afghanistan</u>	517.184
74	Grenada	6,542.61	165	<u>Guinea Bissau</u>	508.662
75	Bulgaria	6,334.34	166	<u>Uganda</u>	500.65
76	Colombia	6,273.37	167	<u>Togo</u>	458.785
77	Azerbaijan	6,008.25	168	<u>Mozambique</u>	458.327
78	Maldives	5,841.33	170	<u>Guinea</u>	448.486
79	<u>Belarus</u>	5,800.43	171	<u>Central African Republic</u>	435.978
80	Saint Lucia	5,651.73	172	Eritrea	397.719
81	Namibia	5,233.21	173	Madagascar	391.818

82	Saint Vincent and the Grenadines	5,228.57	174	Niger	381.157
83	Dominican Republic	5,228.23	175	Ethiopia	350.441
84	Peru	5,171.65	176	Sierra Leone	325.761
85	Dominica	5,167.45	178	Liberia	226.047
86	Jamaica	5,039.38	179	Congo	186.278
87	Thailand	4,991.53	180	Burundi	180.073
88	Iran	4,740.85			
89	Jordan	4,499.79			
90	Angola	4,477.65			
91	Algeria	4,435.43			


Manba: <http://www.economywatch.com/economic-statistics/economic-indicators/GDP Per Capita Current Prices US Dollars/2010/>


GDP Per Capita (Current Prices, US Dollars) Data for All Countries




http://www.economywatch.com/economic-statistics/economic-indicators/GDP_Per_Capita_Current_Prices_US_Dollars/2010/#yearListing

**3-
ilova**





ISRI Inson salohiyatini rivojlantrish indeksi



Manba: http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%B0%D0%B9%D0%BB:2011_UN_Human_Development_Report_Quartiles.svg

